

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 22 961 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Xorazm viloyati	24 067	22 961
Urganch sh.	4 440	4 432
Xiva sh.	1 827	1 683
Bog'ot	1 678	1 497
Gurlan	1 541	1 426
Qo'shko'pir	1 962	1 704
Urganch	2 668	2 634
Hazorasp	1 468	1 468
Tuproqqal'a	621	623
Xonqa	1 878	1 916
Xiva	1 654	1 524
Shovot	1 611	1 416
Yangiariq	1 633	1 664
Yangibozor	1 086	974

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabrda 5 632 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 608 ta, sanoatda 848 ta, boshqa xizmatlarda 651 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 486 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Xorazm viloyati	5 691	5 632
Urganch sh.	695	764
Xiva sh.	316	313
Bog'ot	474	440
Gurlan	451	431
Qo'shko'pir	436	448
Urganch	552	576
Hazorasp	460	450
Tuproqqal'a	152	145
Xonqa	348	350
Xiva	395	387
Shovot	537	489
Yangiariq	571	563
Yangibozor	304	276

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 71,8 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,3 % ga pasaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 634,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 23,2 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Gurlan tumani (61,2 %), Shovot tumani (57,4 %), Xiva sh. (56,5 %), Qo'shko'pir tumani (46,8 %) va Urganch tumani (40,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 8 215,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 89,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiariq (98,2 %), Gurlan (97,9 %) va Xiva sh. (97,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 11 961,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 69,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 156,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Xiva sh. (96,2 %), Yangibozor (95,6 %), Gurlan (91,7 %) va Tuproqqal'a (89,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 23 803,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xiva sh. (100,0 %), Shovot (99,9 %), Tuproqqal'a (99,8 %) va Xonqa (99,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 11 784,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 96,8% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Urganch (97,5,%), Xiva (97,3 %), Xonqa (83,7 %) va Tuproqqal'a (83,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 17 939,7 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 71,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Gurlan (83,7 %), Qo'shko'pir (82,7 %), Yangibozor (82,4 %), Bog'ot (79,4 %) va Yangiariq (77,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 242,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 79,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 99,4 %, Qo'shko'pir tumanida – 97,2 %, Bog'ot tumanida – 96,2 % va Xiva tumanida – 94,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 191,4 mln AQSH dollarini yoki jami importning 61,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangibozor tumanida – 100,0 %, Xiva tumanida – 100,0 %, Hazorasp tumanida – 99,9 %, Gurlan tumanida – 98,3 %, Urganch tumanida – 98,2 %, Urganch sh. – 76,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,5 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 86,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrda 27,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrda 39,0 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 11,3 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrda 66,2 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrda 54,8 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrda 6,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabrda kelib bu ko'rsatkich 6,2 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrda 38,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrda 55,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrda 58,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrda 42,1 % tashkil etgan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrda 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib 2,5 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 43,4 % ni, savdoda – 40,3 % ni va xizmatlar sohasida – 38,5,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 59,7 % ni, xizmatlar sohasida – 56,4 % ni va sanoatda – 56,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,1 % ni, qurilishda – 7,8 % ni va sanoatda – 7,3 ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.



Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Tadbirkorlik subyektlari kuzatuvi statistikasi bo'limi	T. Xodjaniyazov (62) 224-65-18	220100, Urganch sh., Al- Xorazmiy ko'chasi, 93-uy